

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiy ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lim-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romanchilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantik tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



UO'K: 159.91:612.82

SUKUT PSIXOFIZIOLOGIYASI

THE PSYCHOPHYSIOLOGY OF SILENCE

ПСИХОФИЗИОЛОГИЯ МОЛЧАНИЯ

Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi 

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada psixofiziologik holat masalasi yozuvchi Nabi Jaloliddin qissalari misolida tadqiq etilgan. Unda bugungi kunda adabiyotshunoslar tomonidan qiziqish bilan o'rganilayotgan psixofiziologik vositalarning nazariy asoslari tahlil qilingan.

Abstract

The article examines the issue of psychophysiological condition on the example of the stories of the writer Nabi Jalaluddin. In it, the theoretical foundations of psychophysiological tools, which are being studied with interest by literary scholars today, are analyzed.

Аннотация

В статье рассматривается вопрос психофизиологического состояния на примере рассказов писателя Наби Джалалуддина. В ней анализируются теоретические основы психофизиологического инструментария, которые сегодня с интересом изучаются учеными-литературоведами.

Kalit so'zlar: Sukut, psixologiya, psixofiziologiya, jest, mimika, obraz, ruhiyat, ichki kechinma

Key words: Silence, psychology, psychophysiology, gesture, facial expression, image, psyche, inner experience

Ключевые слова: Молчание, психология, психофизиология, жест, мимика, образ, психика, внутреннее переживание.

KIRISH

Badiiy asarda qahramonning xarakter qirralari xilma-xil bo'lganidek, uning ruhiy olamini ochuvchi "portret, monolog, dialog, tush, psixologik timsollar, peyzaj, galyutsinatsiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir. Mazkur vositalar orqali adibning psixologik tahlil mahorati sirlari ochiladi. Olimlar tomonidan o'zbek nasri 80-90- yillarda turli o'zgarishlarga uchragani ta'kidlab o'tiladi. Jumladan, Tilavoldi Jo'rayev "Ong oqimi va tasviriylik" risolasida 80-90-yillarga kelib, o'zbek nasri qamrovi kengayganligi, tahlil maydoni, shakli, mazmuni, qolaversa, maqsadlarining yangi jihatlarini yuzaga kelganligini ta'kidlab, "ruhiyat tahlili badiiy nasrning asosiy sifat belgisi, badiiylik mezoniga aylandi" deb yozadi. [1,3] Bu kabi tasvir vositalari urush mavzusida yozilgan asarlarda aniq ko'rinib turadi. .

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lumki, gaplashayotgan kishilar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi. Muomalaning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi "Yaxshi suhbatdosh-yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" [2,34] deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Tinglash va sukutning badiiy adabiyotda aks etishi ham muhim badiiy detal bo'lib, sukut ham psixofiziologik vositalardan eng ko'p qo'llanuvchi shakldir. To'g'ri, hozirgacha bo'lgan adabiyotshunoslikka oid manbalarda sukutni psixofiziologik holat sifatida tatbiq etilgan o'rinlar mavjud emas. Biz buni birinchilardan bo'lib taklif qilmoqdamiz. Yozma nutqda sukut ko'p nuqta belgisi bilan ifodalanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Musulmonqul bir istehzoli iljayishi va tovushi bilan:

– Siz kim bo'lasiz,– deb so'radi. U hanuz masxara holatida edi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

- Men, Otabek.
- Dunyoda Otabekdan ko'pi bormi. Siz qanday Otabek?
- Otabek Yusufbek hoji o'g'li.
- Ha-a-a shundog' deng-chi. Toshkandlik Yusufbek hojikim, Azizbegimizning gumashtasi

bo'lgan zoti shariflarining o'g'illari.

Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi. U bundan so'nggi ko'rguligini tamom ma'nosi bilan onglab, ma'nosiz bu savollarga javob berib o'tirishdan sukutni xayrlik topdi. Go'yo bu sukuti bilan Musulmonqulga ma'nolik bir javobni ifoda qilar edi. Chindan ham Musulmonqul bu sukutdan tahqirlandi. Tutuni ko'kka ko'tarilar ekan, baqirdi:

-Nega javob bermaysan?.. [3, 76] "

Keltirilgan parchada ko'rinib turibdiki, dialogning ma'lum jaryonida sukutni qo'llash qahramonlarning vaziyatga munosabatini, madaniy va ijtimoiy qarashlarini, xarakterini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Dialogda sukut vositasi orqali so'zli matndan ham kuchliroq ma'noni ifodalash mumkin. Agar Otabek o'z fikrlarini "Men va otam siz o'ylagan shaxs emasmiz, biz urush boshlamoqchi emas edik" kabi so'zlar bilan ifodalaganda Musulmonqulga bu qadar kuchli ta'sir ko'rsatmagan bo'lardi. Sukut orqali esa u dushmanini hech nima tushunmasligini, gapirishning befoydaligini, Musulmonqul o'zidan boshqa odamni tan olmasligini, Musulmonqulga yalinmasligini, qo'rqmasligi ko'rsatib bergan va shu bilan zolim raqibini tahqirlagan.

Sukut psixofiziologiyasi bugungi adabiyotshunoslar tomonidan keng planda o'rganilmagan.

Tilshunos olim I. Qo'chqortoyev "So'z ma'nosi va uning valentligi" deb nomlangan monografiyasida sukut fe'llari haqida alohida to'xtaladi: "Sukut fe'llari o'z ma'nolarining bosh, yetakchi semasiga ko'ra gapiruv fe'llarining "antonimlari" hisoblanadi. Gapiruv fe'llari nutq birliklarini talaffuz qilish amalini bildirsa, sukut fe'llari subyekt (agens)ning gapirmaslik holatini bildiradi.

Rus tilidagi molchat fe'lga to'g'ri keladigan sof sukut fe'li o'zbek tilida yo'q. Lekin o'zbek tilida indamoq fe'lining bo'lishsizlik shakli bor. Bu fe'lning tasdiq shakli iste'moldan chiqib ketgani uchun, uning inkor formasi hozirgi tilda mustaqil so'z sifatida tasavvur qilinadi. Shuning uchun uni sukut fe'llarining dominantasi sifatida qarash mumkin. Sukut fe'llari rus tilida ham kam sonli gruppani tashkil etadi. O'zbek tilidagi sukut fe'llarini ularning kategorial semalariga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) subyektning gapirish qobiliyati yo'qolganini bildiradigan fe'llar;
- 2) subyektning gapirmaslik holatini bildiradigan fe'llar.

Subyektning gapirish qobiliyati yo'qolganini bildiradigan fe'llar ko'p emas. Bunday fe'llarni o'z ichida ikkiga gruppallash mumkin:

- 1) subyektning gapirish qobiliyati butunlay yo'qolganini bildiradigan fe'llar,
- 2) subyektning gapirish qobiliyati vaqtincha yo'qolganini bildiradigan fe'llar.

Subyektning gapirish qobiliyati butunlay yo'qolganini bildiradigan fe'l birliklar tildan qolmoq, so'zdan qolmoq, tili yo'q bo'lib qolmoq, tilsiz bo'lib qolmoq kabi iboralardan iborat. Bu iboralar sub'ektning gapirish qobiliyatidan mahrum bo'lganini anglatadi. Shuning uchun ular odamning nutq faoliyatiga tegishli birliklar sifatida emas, balki odamning nutq qobiliyatiga, odamning til qobiliyatiga tegishli birliklar sifatida talqin etilmog'i lozim.

Subyektning gapirish qobiliyati vaqtincha (qisman) yo'qolganini bildiradigan fe'l birliklar soqovlanmoq, duduqlanmoq, soqov bo'lib qolmoq, duduq bo'lib qolmoq, tili qotib qolmoq, tiliga tamg'a bosilmoq, lol bo'lib qolmoq kabi fe'l va iboralardan iborat. Bu birliklar ham odamning til qobiliyatiga tegishli bo'lgan birliklardir.[3, 160] .

Misollardan ko'rinadiki, subyektning gapirish qobiliyati yo'qolganini bildiradigan fe'llar sub'ektning gapirmaslik holatini emas, balki uning til me xanizmi ishlamay qo'yganligini bildiradi. Bunda til mexanizmnining ishlamay qo'yishi tashqi faktorlar ta'sirida (ya'ni subyektning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holda) yuz beradi.

Sub'ektning gapirmaslik holatini bildiradigan fe'llar sub'ektning gapirish qobiliyati yo'qolganini bildiradigan fe'llarga nisbatan ancha ko'p. Bunday fe'llar dastlab ikkiga gruppalanadi:

- 1) subyektning nutqi (gapi) uzilganini bildiradigan fe'llar,
- 2) subyektning sukut saqlashini bildiradigan fe'llar.

Subyektning nutqi (gapi) uzilganini bildiradigan fe'llar gapdan to'xtamoq, gapi uzildi, gapi og'zida qoldi, so'zi og'zida qoldi, dami kesildi, ovozi o'chdi, nafasi o'chdi, nafasi kesildi, ovozini

o'chirmoq (jim bo'lmoq ma'nosi), nafasini o'chirmoq (jim bo'lmoq ma'nosi), bir gapdan qolmoq kabi frazeologizmlardan iborat. Bu iboralar bevosita nutq faoliyatiga, nutq protsessiga tegishli bo'lgan birliklardir. Ular subyektning biror sabab orqasida gapirishdan to'xtashini bildiradi. Misollar: Qayerdadir Soraxonning dodlagan ovozi eshitilib, gapi og'zida qoldi. Eshik ochilib, so'zi og'zida qoldi kabi.

Subyektning sukut saqlashini bildiradigan birliklarning yana bir guruhi tek, jim va sukut so'zlari ishtirokida yuzaga kelgan ko'chma fe'l va frazeologik iboralardan iborat: tek turmoq, tek qolmoq; jim bo'lmoq, jim qolmoq; sukut saqlamoq, sukutga ketmoq, sukutga botmoq, sukut qilmoq va shu kabilar.

Misollar: Domla nima deyishini bilmay tek qoldi. Er-xotin uzoq jim qolishdi. Shermat aka uzoq sukut qilganidan keyin... boshini ko'tarib, menga, ma'yusona qaradi. So'zamol, badavlat ko'z yumib sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo'lchi tushunmadi.

Badiiy asar qahramoni ruhiy holatini ochib berishda sukutning turli variantlaridan foydalaniladi. Ayrim holatlarda qahramonning ma'naviy-ruhiy tushkunligini, faqat xayollar yordamida o'z orzu-umidlarini tiklash jarayonini ifodalashga ham xizmat qiladi:

"Yodiga Nargizasi tushgandi, ammo bu to'g'rida Akbarga lom-mim demadi. Ikki do'st o'z xayollari bilan sukutga tolishdi" [4, 53].

Mazkur misolda, avvalo, matndagi so'zlarni tanlashda ham yozuvchining mahorati ko'zga tashlanadi. Abduqodirning holatini yoritish uchun keltirilgan "lom-mim demadi" jumlasida og'zaki nutq elementi mavjud bo'lib, uning qalbidagi tuyg'ularni, o'ta shaxsiy bo'lganligi sababli, sir saqlashga intilayotgani berilgan. Albatta, o'zbek xalqi mentalitetiga ko'ra yigit va qizlarda sevgi bilan bog'liq tuyg'ularni oshkor qilish keng odat tusiga kirmagan. Ko'p hollarda bu yurakda saqlanib qolib ketadigan jarayon hisoblanadi. Yozuvchi mazkur ruhiy holatlarni ochib berishda sukut (lom-mim) psixofiziologiyasidan o'rinli foydalanadi. Keyingi gapda Akbar va Abduqodirning psixologik holatini ochib berishda "sukutga tolishdi" jumlasidan foydalaniladi. Ikki do'stning xayol surib "sukutga tolish"ida ham ulardagi ruhiy charchash, urushdan bezish, tinchlik davridagi hayotni sog'inish ma'nolarini anglash mumkin. Abduqodir yoqtirgan qizi Nargiza bilan bog'liq xayollarga beriladi. Akbar esa o'z qishlog'i, oilasi bag'ridagi hotirjam kunlarni o'ylaydi. Ikkalasi ham imkon qadar urush bilan bog'liq voqealarni eslamaslikka, xayolan bo'lsa ham xotirjamlikka erishishga intiladi. Bu holat, albatta, sukut psixofiziologiyasi yordamida ochilgan.

Nabi Jaloliddin qahramonlardagi ruhiy taranglikni, sog'inchni chuqurroq, yorqinroq ifodalash uchun ham sukut psixofiziologiyasidan foydalangan. Harbiy xizmatdan qaytayotgan Abduqodirning xizmatdoshlari bilan oxirgi ulfatchiligida unga so'z berilganda ona haqida she'r aytib beradi. Onalaridan uzoqda bo'lgan askarlar bu she'rdan ta'sirlanib, ruhiyatlarida paydo bo'lgan taranglikni, sog'inch tuyg'ularini ifodalash uchun adib yana sukut jarayonidan foydalanadi:

"Davra jim qolgan, ba'zi yigitlar ehtirosiga berilib, o'z sog'inchlarini yashirisholmay, oshkora yig'lashardi" [5, 56].

"Davra jim qolgan" degan tasvirda askarlarning hech qanday ma'nosiz jim turganliklarini emas, ruhiy g'alayonni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu jimlik qalbda paydo bo'lgan kuchli psixologik bosimni, so'z yoki tana a'zolari yordamida ifodalab bo'lmaydigan psixofiziologik holatni yoritish uchun qo'llangan.

XULOSA

Ijodkor psixofiziologik holat vositasida qahramonlarning xarakter xususiyatlarini qay daraja yoritib bera olishi masalasi nazariy jihatdan o'rganildi. Misollar yordamida qisqa tahlil qilindi. O'zbek adabiyotshunosligida psixofiziologik holatlar qatorida sanalmagan "sukut" detalini psixofiziologik sifatida taklif qilish mumkinligi asoslandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'raev T. Ong oqimi va tasviriylilik – Toshkent: Fan, 1994, 3- b.
2. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
3. Qo'chqortoev. Abdulla Qahhorning frazeologik novatorligi, Toshkent, 1965
4. A.Qodiriy.O'tkan kunlar. Toshkent 2019
5. Jaloliddin N " O'limning rangi" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi; 2021.